



NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINI EKSPERTIZADAN O'TKAZISH: XORIY TAJRIBASI TAHLILI

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik

universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7149203>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 05th October 2022

KEY WORDS

Huquqiy ekspertiza, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunchilik, qonunlar, huquq ijodkorligi, qonuniylik.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligini ta'minlashda hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta'minlashda, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash sifatini yaxshilashda normativ-huquqiy hujjatlarning ekspertizasi muhim o'rin egallaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni mukammal, yangi ijtimoiy munosabatlar ko'lami va darajasiga mos ravishda qabul qilish jarayonida ekspertiza instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy asos qanchalik mustahkam bo'lsa, qonunlarga qanchalik rioya etilsa, davlat va jamiyat ham shuncha rivojlanib boraveradi. Ayni paytda, zamon va islohotlar amaldagi

ABSTRACT

mazkur maqolada muallif normativ-huquqiy hujjat loyihasi ekspertizadan o'tkazish xususiyatlari, normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning qaroriga ko'ra iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik ekspertizadan, shuningdek boshqa turdagi ekspertizalardan o'tkazilishining samaradorligi tahlil qilingan.

Muallif tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ekspertizani umumiy statistik tahlili asosida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ekspertizasi masalalarini so'nggi yillardagi o'zgarishlarini tahlili asosida, nazariy hamda amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

qonunlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish – huquq ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, qonunchilik hujjatlarining mukammal tayyorlanishi, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmini ta'minlash hamda respublikamizda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy- ma'rifiy sohalaridagi keng ko'lamli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish – huquq ijodkorligi jarayonining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, hujjatlarning mukammal tayyorlanishi, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish



mexanizmini ta'minlash hamda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy soxalardagi keng ko'lamli islohotlarning huquqiy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun o'ta murakkab va serqirra jarayon hisoblanmish normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, ularni har tomonlama ekspertizadan o'tkazish, qabul qilish hamda ijrosini ta'minlash bilan bog'liq faoliyat muntazam ravishda ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etib borilishi lozim.

Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertizasini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etishda xorijiy mamlakatlar amaliyotida huquqiy ekspertiza o'tkazish tajribasini tahlil etish va uning ilg'or jihatlarini milliy huquqiy voqyeligimizga tatbiq etish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlarda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish qoidalarining yaratilishi uzoq tarixiy ildizlarga ega. AQSh, Kanada, Germaniya, Polsha, Chexiya, Vengriya kabi mamlakatlarda normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari bilan birga, ularni tartibga solish predmetini to'g'ri tanlash hamda joriy qonunchilik tizimiga mosligini o'rganish masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan olganda, ushbu mamlakatlarda qonun hujjatlarining samaradorligini baholash, ekspertizalar o'tkazish bu boradagi yuridik amaliyotni muhim elementiga aylangan. Xususan, Shveysariyada baholash va ekspertiza kengashlari faoliyat yuritadi. XX asrning boshida AQShlik huquqshunos olim Xoras Flek o'zining maqolasida huquq ijodkorligining sifati va ilmiy asoslanganligini o'rgangan bo'lib, u

keraksiz qonunlarni chiqarmaslikka alohida e'tibor qaratgan. Xususan, uning fikricha, qonunchilik jarayonidagi asosiy kamchiliklardan biri – bu qonunlarning jamiyat iqtisodiy tuzumiga, siyosatga hamda mamlakatdagi ijtimoiy ahvolning inobatga olinmasligidir [1].

Fransis Shnayder o'zining maqolasida yevropa huquqining samaradorligini tahlil qilar ekan, u ham qator xulosalarni shakllantiradi (masalan, institutsional omillar). Uning fikricha, yevropa huquqi samaradorligining omillaridan biri – bu huquqqa muayyan ravishda baho berish va uni tekshiruvdan o'tkazishdir [2]. Demak, har qanday normativ-huquqiy hujjat ilmiy ekspertizadan o'tkazilishi kerak.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy ekspertisasi borasida sifat siljishlari ko'zga tashlanayotgan bo'lsada, bugungi kungacha bu borada yagona huquqiy asoslar yoki qoidalar tizimlashgan ko'rinishda (masalan, qonun) qabul qilinmagan. Bundan tashqari, huquqiy ekspertiza sub'ektlari va ular tomonidan tayyorlanadigan ekspertiza xulosalarining maqomiga oid masalalar ham huquqiy tartibga solish doirasidan chetda qolgan. Aynan ushbu holatlar nuqtai nazaridan ham xorij tajribasini o'rganish va uning ijobiy jihatlarini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

Rivojlangan demokratik davlatlarda qonun loyihalarining ekspertisasi yuqori darajada tashkil etilgan. Xususan, AQShda har bir qonun loyihasi shakllangan axborot-tahlil tizimi orqali atroflicha ekspertizadan o'tkaziladi. Fransiyada esa qonun loyihasini tayyorlash jarayonida 300 dan ortiq malakali yuristlar ishtirok etadi. Qonunlar Davlat kengashi xulosasisiz qabul



qilinmaydi. Xuddi shunday organ Gollandiyada ham mavjud [3].

Qonunlar ekspertizasini samarali o'tkazishning yana bir omili mazkur jarayonni yetarli darajada moliyalashtirish hisoblanadi. Ekspertni moliyaviy rag'batlantirish, ekspertizani o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni to'liq qoplash rivojlangan davlatlar amaliyotida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Masalan, Buyuk Britaniyada vakillar palatasi ilmiy-tadqiqot xizmatlarining taraqqiy etganiga qaramay, uning har bir qo'mitasi belgilangan xarajatlar smetasi chegarasida ekspertlar yollash huquqiga ega. Ularning soni cheklanmaydi. Ayniqsa, xorijiy ekspertlarni jalb qilish tashqi siyosiy aloqalar va iqtisodiy munosabatlarga oid qonunlarning ekspertizasini samarali o'tkazishga xizmat qiladi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasining ilmiy-huquqiy ekspertizasi natijalari bo'yicha tayyorlangan xulosa, avvalo ushbu hujjatning chuqur ilmiy tahlil etilganiga asoslanishi lozim.

Xorijiy davlatlarda huquqiy xulosalar tayyorlash amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, Rossiyada qonun loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti tomonidan Davlat Dumasiga kiritilgandan so'ng, Davlat Dumasi

Devonining tahliliy boshqarmasi va huquqiy boshqarmasi uning ekspertizasini amalga oshiradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, tahliliy boshqarma ekspertizani o'tkazish paytida asosiy e'tiborni qonun loyihasini qabul qilish zarurligiga va u sabab bo'lish mumkin bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa oqibatlar tahliliga qaratadi.

Huquqiy boshqarma loyiha Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyasiga va

qonunchilikka muvofiqligiga oid, qonunchilik texnikasi qoidalarga rioya etilishi yuzasidan xulosa tayyorlaydi, ushbu qonun loyihasi mavjud huquqiy tizimga qanchalik mos kelishini belgilaydi.

Ukrainada qonun loyihalarining ekspertizasi quyidagi tartibda amalga oshiriladi: qonun loyihasi qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ekti tomonidan Ukrainaning Oliy Radasiga kiritilganidan so'ng loyiha Oliy Rada Apparating bosh (mas'ul) qo'mitasi va ilmiy-ekspert boshqarmasiga boriladi. Ilmiy-ekspert boshqarmasi qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqishdan oldin uning dolzarbligi, qonunchilikka mosligi hamda u qabul qilinishining ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa oqibatlari tahlili yuzasidan ekspertiza o'tkazadi. Ilmiy-ekspert boshqarmasining xulosasi qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilish uchun ovoz berishdan oldin deputatlarga majburiy tartibda taqdim etiladi. Qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingandan so'ng u Oliy Rada Devonining yuridik boshqarmasida majburiy huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi. Ekspertiza jarayonida ushbu qonun loyihasining mavjud huquqiy tizimga qanchalik mosligi va uni tayyorlashda qonunchilik texnikasi qoidalariga qay darajada rioya etilganligi aniqlanadi.

Shu tariqa, Ukrainaning qonun ijodkorligi jarayonida qonun loyihalari ilmiy-huquqiy ekspertizasi ketma-ketligi, maqsadlari va sub'ektlari aniq qilib belgilab qo'yilgan. Birinchi bosqichda ekspertizani Oliy Rada Devonining Ilmiy-ekspert boshqarmasi amalga oshiradi, keyingi bosqichda, ya'ni qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilingandan so'ng Oliy Rada Devonining yuridik boshqarmasi ekspertizadan o'tkazadi.



Shuningdek, ushbu masalalar yuzasidan Buyuk Britaniyada e'tiborga loyiq tajriba to'planganligining guvohi bo'lamiz. Bunda qonun loyihalarining huquqiy ekspertizasini o'tkazish tajribasining tahlili diqqat markaziga kodekslashtirilgan ichki huquqqa ham, yagona hujjat yoki hujjatlar tizimi sifatida yozilgan konstitutsiyaga ham ega bo'lmagan davlat sifatidagi xususiyati tushunilishini ko'rsatadi. Lekin bu holat Buyuk Britaniyada qonunlar ekspertizasi uchun huquqiy chegaralar mutlaqo mavjud emasligidan dalolat bermaydi. Chunki, ushbu mamlakat huquq tizimida qonunchilik asosining ayrim qismlari mavjud.

Amaldagi konstitutsiyaviy qonunchilikka ko'ra, Shvetsiyada har qanday hokimiyat xalq nomidan ish ko'radi. Unga binoan, Shvetsiya fuqarolari tomonidan umumiy va to'g'ridan-to'g'ri saylov yo'li bilan shakllantiriladigan qonun chiqaruvchi organ (Riksdag) – parlament faoliyat olib boradi [4].

Boshqa mamlakatlarda bo'lganidek, Shvetsiyada ham keng miqyosdagi tadqiqot ishlari qonunchilik jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon, odatda, hukumat qo'mitasini tashkil etishdan boshlanadi. Biroq, ba'zan tegishli vazirlik huzurida ishchi guruhi tashkil etishning o'zi kifoya. Qo'mita tashkil etilishi bilan unga faoliyat yuritish uchun muayyan erkinlik berilishi mumkin. Ayrim hollarda uning faoliyati protokol bilan chegaralanadi. Qo'mita tarkibi muayyan masalaga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda qo'mita bir necha kishidan iborat bo'lsa, shu bilan birga, bir kishidan tashkil topgan qo'mitalar ham mavjud. Ko'pincha qo'mita tarkibiga yuristlar va ko'rib chiqilayotgan masalaga qarab muayyan soha mutaxassislaridan

iborat ekspertlar, shuningdek, parlament a'zolari va oddiy fuqarolarning vakillari kiritiladi.

Ko'pgina sohalarda turli ekspertlar fikri sezilarli darajada farq qilganligi tufayli nuqtai nazar turlicha bo'lgan bir necha ekspertlar jalb qilinadi. Qo'mitaga o'z faoliyatini tashkil etish usulini tanlashda muayyan erkinlik beriladi. Shunga qaramay, ba'zan protokol muayyan shartlar qo'yadi.

Odatda, qo'mita faoliyatini tugatish muddatlari nazarda tutiladi. Shvetsiyada qo'mitalar faoliyati ikki yildan oshmaydi. Qo'mita asosan keng tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Masalan, qo'mita so'rovlarni tarqatish va muhokamalarni tashkil etish bilan shug'ullanishi mumkin. Qo'mita Shvetsiya bo'ylab va chet elda ta'lim turlari tashkil etish vakolatiga ega. Yangi qonun qabul qilish yoki amaldagi qonunni qayta ko'rish to'g'risidagi taklifni kiritishdan oldin qo'mita moliyaviy xarajatlarni baholashi lozim. Bu amalda qo'mitaning asosiy vazifalaridan biridir.

Qo'mita moliyalashtirish qaysi manbalardan amalga oshirilishini ko'rsatib berishi zarur. Agar qo'mita qonunning bajarilishi ustidan nazorat olib boruvchi yangi organ tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan chiqsa, bunday holda yangi organni moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish talab etiladi.

Qo'mita o'z ishini tugatganidan va uning ma'ruzasi e'lon qilinganidan so'ng tegishli vazirlik ma'ruzani ayrim mansabdor shaxslar va tashkilotlarga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Bunda adresatlar soni va turi ma'ruza predmetiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Odatdagi sharoitda ishchilar hamda iste'molchilar manfaatlarining vakillari fikri ham e'tiborga olinadi. Agar qo'mita ma'ruzasi



yuridik masalalarga taalluqli bo'lsa, u sudlarga va universitetlarning huquq fakultetlariga yuboriladi.

Ma'ruzaga binoan, u yoki bu majburiyat muayyan organga yuklanishi lozim bo'lgan hollarda bu organga ham o'z fikrini bildirish imkoni beriladi.

Ma'ruza bo'yicha barcha fikr-mulohazalar vazirlikka taqdim etilgach, vazirlik yoki vazirliklar uni ko'rib chiqishni davom ettiradi. Ba'zan vaziyatni yanada chuqurroq o'rganish zarurati tug'iladi. Masalan, vazirlik masalaning jamoatchilik o'rtasidagi muhokamasini tashkil etishi mumkin.

So'ngra hukumat barcha materiallar asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradi. Hukumat qonun loyihasini parlament muhokamasiga taqdim etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

So'nggi yillarda shved huquqshunos olimlari tomonidan huquqiy qoidalarni aniq va tushunarli ravishda ta'riflash zarurligi qayd etilmoqda. Buning uchun qonun loyihasini tayyorlash bosqichida ko'pincha tilshunos ekspertlar jalb qilinadi. Shvetsiyada har bir qonun loyihasini parlamentga taqdim etishdan oldin uni Adliya vazirligining tilshunoslik bo'yicha maxsus departamenti tomonidan ko'rib chiqish tizimi mavjud.

Odatda, qonun loyihasi Huquqiy kengash tomonidan ko'rib chiqilmagunicha, u Shvetsiya parlamentiga taqdim etilishi mumkin emas.

Huquqiy kengash – Oliy sud va Oliy ma'muriy sudning uch sudyasidan iborat mustaqil organ. Huquqiy kengashning asosiy vazifasi hukumat tayyorlagan qonun loyihalarini o'rganishdan iborat. Biroq, huquqiy qoidalarning loyihalari ba'zan parlamentda tayyorlanadi, tashabbus parlamentning ayrim a'zosiga tegishli

bo'lishi mumkin. Bunday qonun loyihasi Huquqiy kengashga ko'rib chiqish uchun tegishli parlament qo'mitasi tomonidan yuboriladi.

Qonun loyihasining fundamental qonunlar va umuman huquqiy tizimga muvofiqligini aniqlash Huquqiy kengash faoliyatining muhim jihati hisoblanadi. Bu masalada Huquqiy kengash qonun loyihasining Shvetsiya Konstitutsiyasiga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratadi. Biroq, 1995 yilda Shvetsiya yevropa Ittifoqi tarkibiga kirishi munosabati bilan qonun loyihalarining yevropa Ittifoqi huquqiga muvofiqligining ahamiyati ortdi. Huquqiy kengash vazifalari qatoriga qonun loyihalarining huquqiy tizimga muvofiqligini tekshirishdan tashqari, loyiha asosiy qoidalarining bir-biriga zid emasligini tekshirish ham kiradi. Kengash huquqiy xavfsizlik talabini ham e'tiborga olishi lozim.

Nihoyat, Huquqiy kengash qonun loyihasi qoidalarining ta'riflari uning maqsadlariga muvofiq yoki muvofiq emasligi hamda qonunni hayotga tatbiq etishda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkinligi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqadi.

Huquqiy kengashning fikri tavsiyaviy xususiyatga ega. Ayni paytda hukumat va parlament bir xil nuqtai nazarni qabul qilishga majbur emas.

Shunga qaramay, Huquqiy kengashning fikri (ayniqsa, u ko'rib chiqilayotgan qonun loyihasi Konstitutsiya yoki yevropa Ittifoqi qonunchiligiga zid ekanligini qayd etgan holda) inobatga olinadi. Bunday hollarda qonun loyihasi, odatda, chaqirib olinadi yoki qayta ko'riladi.

Huquqiy kengash o'z ma'ruzasini tegishli vazirlikka yuborganidan keyin, vazirlik ma'ruzaga asosan o'z mulohazalarini kiritadi va qonun loyihasini parlamentga



taqdim etadi¹. Shundan so'ng qonun loyihasi parlamentning doimiy qo'mitalaridan birida ko'rib chiqiladi. Bu yerda qonun loyihasi yana sinchiklab o'rganiladi. Agar parlament qo'mitasi ko'psonli tuzatishlar kiritish lozim, deb topsa, qonun loyihasi Huquqiy kengashga maromiga yetkazish uchun qaytarilishi mumkin.

Shveysariyada qonunchilikning roli va ta'sirini baholash so'nggi yigirma yilda siyosiy jarayon va, ayniqsa, qonunchilik jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylandi. 1999 yil 18 aprelda qabul qilingan Shveysariya Konfederatsiyasining yangi Federal Konstitutsiyasiga baholash faoliyati haqidagi yangi moddaning kiritilishi bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning tadrijiy yakuni bo'ldi.

Shtefan Vogenauer Germaniyada qonunchilik jarayonini o'rganib, uning eng asosiy jihatlaridan biri sifatida huquqiy doktrinaning kuchlita'sirini ko'rsatib o'tgan. Bunda Bundestag huzurida maxsus Ilmiy izmatning mavjudligi va uning qonunchilikni ilmiy jihatdan tahlil qilishi qayd etilgan. Muallifning fikricha, qonunni ekspertizadan o'tkazishda ilmiy jamoatchilik va doktrinal huquqning roli juda yuqoridir [5].

yevropada huquqni ekspertiza qilish, huquqiy aktlarning sifatini oshirish masalasi yuzasidan Latviya Universitetida bo'lib o'tgan "Huquqiy hujjatlar sifati va uning hozirgi zamon huquqiy makondagi ahamiyati" [6] mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu to'plamda huquqiy aktlarning sifatini oshirishda muayyan standartlar va omillar masalalariga oid ilmiy maqolalar chop etilgan.

Ma'lumki, ma'muriy – huquqiy islohotlar jarayonida jamiyatdagi salbiy hodisalardan

biri – korrupsiyaga qarshi kurash hisoblanadi. Ushbu masala yuzasidan xorijiy tajriba va amaliyotni o'rganar ekanmiz, normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi masalasiga BMTga a'zo ko'pgina davlatlarda, shuningdek, MDH a'zolari bo'lgan ayrim mamlakatlar Rossiya, Belorussiya, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova hamda Boltiqbo'yi davlatlarida keng e'tibor qaratiladi. Umuman olganda, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish amaliyoti MDH davlatlarida asosan bir-biriga yaqin bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bu boradagi amaliyoti bilan ham ko'p o'xshash tomonlari mavjud.

Mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi ekspertiza instituti joriy qilingan bo'lib, bu borada maqsadli va tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Yangi tahrirda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 25-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari huquqiy ekspertiza bilan bir qatorda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan ham o'tkazilishi shartligi to'g'risida qat'iy norma belgilandi. Shu asosda "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish bilan bog'liq xorijiy tajriba hamda amaliyotni o'rganish va eng asosiysi ularning ilg'or jihatlarini milliy qonunchiligimizga uyg'unlashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat huquqiy islohotlarning samaradorligini oshirishda, har tomonlama mukammal va sifatli bo'lgan qonunchilik



tizimini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Horace E. Flack. Scientific Assistance in Law Making // Proceedings of the American Political Science Association, Vol. 10, Tenth Annual Meeting (1913), –PP.215-221. (<http://www.jstor.org/stable/3038428>).
2. Francis Snyder. The Effectiveness of European Community Law: Institutions, Processes, Tools and Techniques // The Modern Law Review Vol. 56, No. 1 (Jan., 1993),. – PP.19-54. (<http://www.jstor.org/stable/109657>).
3. Yo'ldoshev A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan qonunlarni ilmiy ekspertizadan o'tkazish // Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – T.: TDYuI, 2005. – B.46–47
4. Tajabova M. Huquqiy davlatchilik sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B.32–33.
5. Stefan Vogenauer. Learning and lawmaking in Germany today. // Oxford Journal of Legal Studies. Vol. 26, No. 4, Winter, 2006. – PP.627-663. (<http://www.jstor.org/discover/10.2307/4494561>).
6. International Scientific Conference: The Quality of Legal Acts and its Importance in Contemporary Legal Space. 4-5 October, 2012 (<http://www.jstor.org>).